



SOCIAL AND ECONOMIC LIFE IN THE KHIVA KHANATE DURING THE REIGN OF MUHAMMAD RAHIM KHAN I

Malika Matkarimova

Independent researcher

Urgench State University

Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Khiva khanate, Kungirat dynasty socio-economic life, Muhammad Rahim-khan I, reform.

Received: 23.03.25

Accepted: 25.03.25

Published: 27.03.25

Abstract: The article is devoted to the socio-economic life during the reign of Muhammad Rahim-khan I, the Khan of Khiva from the Kungirat dynasty. The article deals with the formation of the Kungirat dynasty in the Khiva khanate and construction works carried out during the reign of Muhammad Rahim-khan I. Works of historians who investigated this period are also commented.

MUHAMMAD RAHIMXON I DAVRIDA XIVA XONLIGIDA IJTIMOYIY-IQTISODIY HAYOT

Malika Matkarimova

mustaqil izlavchi

Urganch davlat universtiteti

Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar. Xiva xonligi, Qo'ng'irotlar sulolasi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, Muhammad Rahimxon I, islohot.

Annotatsiya: Maqola Qo'ng'irotlar sulolasidan bo'lgan Xiva xoni bo'lgan Muhammad Rahimxon I xukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bag'ishlanadi. Maqolada Xiva xonligida Qo'ng'irotlar sulolasining o'rnatilishi va Muhammad Rahimxon I davrida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari keng yoritilgan. Shuningdek shu davrni tadqiq qilgan tarixchilar asarlariga izoh berib o'tilgan.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММЕД РАХИМ-ХАНА I

Малика Маткаримова

Самостоятельный исследователь

Ургенчского государственного университет

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: Хивинское ханство, династия Кунгиратов экономическая жизнь, Мухаммад Рахим-хан I, реформа.</p>	<p>Аннотация: Статья посвящена социально-экономической жизни в период правления Мухаммад Рахим-хана I, хана Хивы из династии Кунгиратов. В статье рассматривается становление династии Кунгиратов в Хивинском ханстве и строительные работы, осуществленные в период правления Мухаммад Рахим-хан I. Также комментируются работы историков, исследовавших этот период.</p>
--	---

KIRISH

Mamlakatimiz tarixining tarkibiy qismi bo'lgan Xiva xonligining 400 yildan ziyodroq vaqt mobaynida mavjud bo'lib turgan davrda o'zbek davlatchiligi boshqaruv tizimi va milliy-madaniy qadriyatlari, an'analari mujassamlashtirgan, ayni paytda xududiy jihatdan o'ziga xos jihatlari saqlab qolingan. XVI asr boshlarida vujudga kelgan Xiva xonligida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar izchil rivojlandi. Ayniqsa Xiva xonligi Qo'ng'irotlar sulolasi davrida gullab yashnadi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot rivojlandi. Shu davrni tadqiq qilish uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'ziga xos jihatlarni yoritish vatahlil qilish bugungi kunda tarixchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Zero, Xiva xonligining Qo'ng'irotlar sulolasi davri ijtimoiy-iqtisodiy tarixi Shayboniylar sulolasi davriga nisbatan keng o'rganilgan. XIX asr boshida ushbu sulola vakillari xokimiyat tepasiga kelgandan keyin jamiyatda mavjud bo'lgan nisbatan barqarorlik va osoyishtalik jarayoni xonlikning iqtisodiy jihatdan taraqqiy qilishiga asos bo'ldi. Bu davrda Xorazm tarixnavislik maktabi o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi. Mahalliy tarixchilar tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar xonlik tarixi va iqtisodiy hayotini o'rganishda muhim manba bo'lib hizmat qildi. SHu, bilan birga Rossiyadan ko'plab elchilar, savdogarlar, harbiylarning xonlikka yuborilishi natijasida xisobot, xotira, esdaliklarning paydo bo'lganligi xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida keng ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi.

Xiva mehmorlari yer yuzida o'zidan yorqin xotira qoldirishdek buyuk bunyodkorlik baxtiga sazovor bo'ldilar. Bir necha asrlar o'tgan bo'lsada mohir ustalar qo'li bilan yaratilgan shahardagi nodir obidalar o'zining go'zalligi va ulug'vorligi bilan barchani hayratga soladi.

Shuningdek, bu binolar o'sha davr xonlikning iqtisodiy hayotini yoritib beruvchi muhim vositalardir. Ular o'ziga xos shakl va ranglarning betakror uyg'unligi bilan, binokorlar, mehmorlar, xalq ustalari va sanhatkorlarning ko'plab avlodlariga mansub ijodiy g'oyalarni o'zida mujassamlantirganligi bilan bir qatorda, o'sha davr xonlikning iqtisodiy qudratini ham ko'rsata olgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Xiva xonligiga oid ilk yozma manbalar o'rganila boshlangan bo'lsa ham, ularning mazmuni kam tadqiq etilgan. Xiva xonligining Qo'ng'irotlar sulolasi davri iqtisodiy hayotini o'rganishda yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Xonlik tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar asosan Shermuhammad Munis ("Firdavs ul-iqbol"), Muxammad Rizo Ogahiy ("Riyoziy ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jomeh ul-voqeoti sultoniyy", "Gulshani davlat", "Shohid ul-iqbol") va Muhammad Yusuf Bayoniy ("Shajarayi Xorazmshohiy", "Xorazm tarixi") singari xivalik tarixchilar asarlarida qayd qilingan bo'lib, Ular XVII asrda Abulg'oziy Bahodirxon boshlab bergan tarixnavislik ilmini davom ettirganlar hamda rivojlantirganlar.

ASOSIY QISM

1763 yildan boshlab Xivada amalda qo'ng'irotlar urug'i inoqlari hokimiyat tepasiga kelgan bo'lsa-da, 1804 yilgacha Xiva xonlari hukmdor sifatida boshqa shaxsni xon qilib ehlon qilganlar. Qo'ng'irotlar sulolasi hukmdorlaridan Muhammad Amin inoq (1763-1790 yy.) Xivada hokimiyatni qo'lga olgach saroydagi bir qancha lavozim va amallarga o'ziga sodiq va ishonchli odamlarni tayinladi. Yangi xon shu yo'l bilan xonlikdagi muhim siyosiy-mahmuriy, moliyaviy va harbiy hokimiyatni o'z qo'lga olib, ayrim mustaqil beklarni o'ziga itoat ettirdi.

Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, shaharlik savdogarlar, hunarmandlar va din peshvolari yordamida o'z hokimiyatini ancha mustahkamlagan Muhammad Amin inoq 1770 yilda turkmanlar hujumini, 1782 yilda Buxoroliklar tajovuzini muvaffaqiyatli qaytardi. Uning hukmronligi davrida Xiva xonligida dehqonchilik, savdo – sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida mahlum chora – tadbirlar amalga oshirildi. Mahalliy hukmdorlarning o'zaro nizomlari va kurashlariga chek qo'yilishi natijasida xonlikdagi iqtisodiy hayot yaxshilanib bordi.

Muhammad Aminning o'g'li Avaz inoq (1790-1804 yy.) otasining ishlarini davom ettirgan bo'lsa, Avazning o'g'li Eltrzar inoq 1804 yilda Xiva taxtiga o'tirib, sohta xon Abdulg'oziy V ni haydab yubordi va o'zini rasmiy xon (1804-1806 yy.) deb ehlon qildi. Shu tariqa Xivada qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi rasmiy qaror to'di. Eltuzarxon xonlikdagi mustaqil hokimlarni birlashtirish siyosatini davom ettirdi. Ammo, uning hukmronligi uzoq davom etmadi.

1806 yilda Eltuzarxon buxoroliklar bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi. Taxtga uning ukasi Muhammad Rahimxon I o'tirdi.

Xiva xonlari shajarasida eng kuchli humdorlardan biri — Muhammad Rahimxon I (1806–1825) hisoblanadi. 1819 yilda u bilan uchrashgan rus zobiti N.Murav'ev: “Muhammad Rahimxon baland bo'yi, katta gavdali, nigohi o'tkir, irodasi kuchli, jasur va tadbirkor bo'lgan, uni kuchli ot ham ikki soatdan ortiq ko'tarib yura olmagan”, — deb yozgandi. Tarixchi K.Xudoyberganovning ma'lumotlariga qaraganda Muhammad Rahimxon I o'ta taqvodor odam bo'lib, arab, fors va turkiy tillarini bilgan hamda “Oxun xon” unvonini olgan Kam uxlagan, shaxmat ishqivozi bo'lgan, xalq urf-odatlarini va bayramlarini benihoya hurmat qilgan. Amaldorlarga kelib chiqishiga qarab emas, balki ishini ko'rib baho bergan.

Muhammad Rahimxon I markazlashtirish siyosatiga katta e'tibor berib, Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga yetkazdi. Xiva tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Rahimxon I xonlikdagi vaziyatni to'g'ri tushunib, shunga yarasha davlat siyosati ishlab chiqdi va ushbu siyosatni qathiyatlik bilan amalga oshirdi. Xususan, uning bevosita tashabbusi bilan xonlikda mahmuriy – siyosiy, iqtisodiy va harbiy islohotlar o'tkazildi.

Dushmanlariga, markazdan qochuvchi kuchlarga nihoyatda beshafqat bo'lgan Muhammad Rahimxon I o'z atrofiga o'zbek, turkman, qozoq va qoraqalpoqlarning nufuzli vakillarini to'plab, ularga amallar va unvonlar berdi. Xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) tahsis etildi. Ruhoniylarga ham alohida ehtibor berilib, Shayxulislom Kengashning ahzosi va xonning eng yaqin masahatchisiga aylandi. Muhammad Rahimxon I ning musulmon ruhoniylarining halq orasidagi mavqeini hisobga olib sayidlardan bo'lgan Sayid Pirmuhammad Xo'janing qiziga uylangani ham ma'lum.

Bu xon davrida mamlakatning iqtisodiy hayoti jonlanganligi haqida ham ma'lumotlar talaygina. Uning davrida mahsus islohotlar o'tkazilib, soliqlar tarkibiga solindi. Bojxona tashkil etilib, ichki va tashqi savdodan keladigan daromadlar ko'payib bordi.

Muhammad Rahimxonning sal kam 20 yillik hukmronligi davrida Xiva xonligida mustahkam davlatchilik asoslari shakllandi, mamlakat hududlari kengaydi va uning poytaxti yanada ravnaq to'di. 1810–1811 yillarda Orol bo'yi o'zbeklari, qozoq va qoraqalpoqlari bo'ysundirildi. 1819-1820 yillarda xon Axal-Taka turkmanlariga qarshi urushlar olib bordi. 1819 yilda Muhammad Rahimxon o'z nomidan oltin va kumush tangalar chiqara boshladi va Ko'hna Arkda zarbxona qurdirdi.

Moskvadagi Qurol-aslaha muzeyida 1816 yilda usta Yusuf Muhammad tomonidan yasalgan Muhammad Rahimxon I ning taxti saqlanadi. “Taxtning hamma joyi O'rta Osiyodagi gul va o'simliklarni o'zida namoyon etuvchi juda chiroyli naqshlar bilan bezatilgan. Bu taxt

Xiva ustalarining mahorat cho‘qqisi, yahni metallga gul solish sanhatining betakror mahsulidir”, — deb yozadi rus tadqiqotchisi V.V.Stasov.

XIX asr boshlarida vujudga kelgan yuksalish natijasida Xiva shahrining xonlikdagi o‘rni yanada mustahkamlanib bordi. Shaharda haftasiga 2 marta — dushanba va juma kunlari bozor bo‘lardi. Bu bozorlarga o‘lkaning barcha burchaklaridan hamda Russiyadan savdogarlar kelar, hom-ashyo va tayyor mahsulotlar juda serob hamda mol ayirboshlash juda qizg‘in jarayonda kechardi.

Shaharda amalga oshirila boshlagan katta qurilish ishlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Olloqulixonning saroy tarixchisi Xudoybergan ibn Qo‘muhammad shunday deb yozgandi: “Xiva bir necha bor vayron qilingan va qayta tiklangan. Shahar ayniqsa marhum Olloqulixonning otasi Abulg‘ozi Muhammad Rahimxon va uning ukasi Qutlug‘murod Inoq harakatlari bilan obodonlashtirilgan. Ularning sahy–harakatlari bilan Xivada katta madrasa barpo etildi. Bu ishlarga Sher ismli devonbegi va vazir Muhammad Rizo qushbegi katta xissa qo‘shdi. Jannatmakon Olloqulixon buyrug‘i bilan karvon saroy, usti yo‘iq bozor (Tim) va ular orasida katta madrasa qurildi”.

Yuqorida ismi–sharifi zikr qilingan Muhammad Rahimxonning akasi Qutlug‘ Murod inoq (1768–22.5.1824) uzoq yillar To‘rtko‘l viloyati hokim bo‘lgandi. 1806-1811 yillarda uning mablag‘iga ulkan madrasa barpo etiladi. ‘ishiq g‘ishtdan buxoracha usulda 2 qavvatli etib qurilgan va sathi 57,0x44,0 metr bo‘lgan madrasada 81 hujra, darsxona, yozgi va qishgi masjid bor edi. Madrasaning ichki hovlisida yer osti hovuzi — sardoba bo‘lib, u qamal vaqtida shahar aholisini ichimlik suvi bilan tahminlashga hizmat qilgan.

Qutlug‘murod Inoq o‘z vasiyatiga ko‘ra madrasa ichiga dafn qilinishi lozim edi. Ammo shariat qonunlariga ko‘ra Dishon qalhadagi vafot etganlarni Ichan qalhadagi maqbaralarga qo‘yishga ruhsat berilmagan. Shunda Muhammad Rahimxon davlat va din arboblari bilan maslahatlashib akasinining vasiyatini bajarish imkoniyatini izlagan. Mullalardan birining fatvosi bilan qalha devorlaridan bir qismi buzilib, jasad madrasaga dafn qilingan. Buzilgan devor o‘rnida keyichalik Olloqulixon Karvon saroyi va Timi tiklangan.

Mamlakat qudrati oshgan vaqtda Muhammad Rahimxonning Xivada tiklatgan salobatli imoratlari orasida Pahlavon Mahmud yodgorligi alohida o‘rin tutadi. “Xivadagi eng go‘zal imorat va eng muqaddas joy — Polvon ota masjididir. Bu avliyo inson bu yerda xuddi Buxorodagi Bahouddindek e‘zozlanadi. Gumbazining ustidagi oltin qubbasi juda chiroyli”, — deb yozgandi 1873 yilda Xivada bo‘lgan rus ‘olkovnigi L.Kostenko.

Pahlavon Mahmud maqbarasi qurila boshlagan joyda dastlabki ‘aytda qabriston bo‘lgan. 1701 yilda Shohniyozxon buyrug‘i bilan qabriston darvozasi tiklangan. 1810 yilda qurila

boshlagan Pahlavon Mahmud maqbarasining 25 m. balandlikdagi gumbazi bo'lgan. Maqbara keyingi 30-35 yillar davomida yanada kengaytirilgan va betakror koshinlar bilan bezatilgan.

Uzoq yillar Xivada ishlagan naqqosh Abdulla Boltaev va tarixchi Komiljon Xudoyberganovning ma'lumotlariga qaraganda Pahlavon Mahmud maqbarasining qurilishiga boshchilik qilgan Muhammad Yusuf mehtar mashhur koshinkor ustalardan — Hazorasplik Odina Muhammad Murod o'g'li (Karvak qishlog'idan), Xonqalik Abdul Jabbor Ishoq o'g'li (Madir qishlog'idan), Yangiariqlik Mullo Qodir Bardi o'g'li (Kattabog' qishlog'idan), Xivalik Abdulla Yoqub Husayn o'g'li (Shayxlar qishlog'idan), Mulla Muhammad Panoh o'g'li (Sangar qishlog'idan), Mulla Nur Muhammad o'g'li va boshqalarni jalb qiladi.

1893-1894 yillarda maqbaradagi serjilo o'yma eshikni usta Nodirmuhammad yasagan. 1825 yilda rangli koshinlarni usta Qalandar Xivakiyning o'g'li Mulla Nurmuhammad va usta Abdul Jabborning o'g'li So'fi Muhammad bajarganlar. Naqshlarni esa Xivalik mashhur usta Abdulla Jin chizgan. Sag'ana yonida o'rnatilgan mis 'anjaraga Abdulla Mulla Said o'g'li Xivaqiy naqsh tushirgan. Ular koshinlardagi jim-jimador naqshlarga Pahlavon Mahmud ruboyilarini mahorat bilan joylashtirganlar.

Xiva xonlari xonakohiga aylantirilgan maqbarada ulug' Pahlavon Mahmud hoki bilan birga Abulg'oz Bahodirxon, Anusha Muhammadxon, Muhammad Rahimxon I, Ollaqulixon kabi bir qator yirik arboblarning qabrlari joylashtirilgan.

1825 yil 7 mayda vafot etgan Muhammad Rahimxon I o'rniga taxtga ko'tarilgan o'g'li Olloqulixon (1825–1842) davrida ham Xivada bunyodkorlik ishlari davom ettirildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilish mumkinki, Qo'ng'irotlar sulolasi, ayniqsa bu Muhammad Rahimxon I davrida Xiva xonligida ko'pgina bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot gurkiradi, Xiva shahrida ko'lab yangi machitlar, madrasalar va maqbaralar bunyod etildi. Bu esa Xiva xonligining iqtidodiy qudratini o'zida namoyon etardi. Qo'ng'iritolar sulolasi davrida amalga oshirilgan obodonchilik ishlari hamda bunyod etilgan binolar bugungi kunda ham o'z salobatini yo'qotmagan va Xivaning go'zalligini butun dunyoga namoyish etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduroasulov A. Xiva. Tarixiy-etnografik ocherklar. Toshkent, 1990. — 17 B
2. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. гвардейского Генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного сию страну для переговоров. Ч. 1. — М., 1819. — 179 с. Записки Николай Николаевич Муравьева—Карского "Путешествия в Хиву" // "Русский архив", 1887, № 3, 5-42 б.

3. Стасов В.В.Собрание сочинений 1847-1886: С прил. его портр. и снимка с поднес. ему адреса. Т. 1-4. Художественные статьи / 4 т.; 21-27. — Санкт-Петербург: тип. М.М. Стасюлевича, 1894-1906, 1894. — [1680] стб. разд. паг., 2 л. фронт. (ил., портр.).
4. Sodiqova N. O'g'irlangan milliy boyliklarimiz // "Fan va turmush", 1991, № 9. — 20 B.
5. Юсупова М.А. Медресе Хивы и Бухары: эволюция, общность и особенности архитектурных школ // "Общественные науки в Узбекистане", 1997, № 7-8. — С. 63.
6. Костенко Л. Город Хива в 1873 году // "Туркестанский сборник", т. 82. — Т., 1873. — С. 237.
7. Abdullaev K. Naqshlarga bitilgan umr. — Т.: "G'afur G'ulom", 1995. — 33 B.